



## ARGUMENTATIVE TRICKS AS A COGNITIVE MECHANISM OF CONSCIOUSNESS MANIPULATION

**Khurshid Ilkhamovich Toshov**

*Associate Professor, Department of Philosophy*

*National University of Uzbekistan, Doctor of Philosophical Sciences*

*e-mail: [sujdiniya@mail.ru](mailto:sujdiniya@mail.ru)*

*Tashkent, Uzbekiston*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Manipulation, formal logic, informal logic, paralogisms, sophisms, relevant arguments, irrelevant arguments, logical tricks, psychological tricks, universal audience.

**Received:** 19.12.25

**Accepted:** 20.12.25

**Published:** 21.12.25

**Abstract:** This article analyzes the argumentative mechanism of the phenomenon of consciousness manipulation from the perspectives of the paradigms of formal and informal logic. First of all, the concepts aimed at explaining the possibilities of persuasion and proof—considered necessary elements of the structure of the phenomenon of consciousness manipulation—within the paradigms of formal and informal logic are comparatively analyzed. It is also scientifically substantiated that the criteria for classifying arguments are an important factor in distinguishing argumentation from manipulation. Furthermore, special attention is paid to the idea that the intentional aspect of errors committed in the process of argumentation may determine their functions as manipulative mechanisms.

## ARGUMENTATSION XIYLALAR ONGNI MANIPULYATSIYALASHNING KOGNITIV MEXANIZMI SIFATIDA

**Xurshid Ilxomovich Toshov**

*O'zMU "Falsafa" kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori*

*e-mail: [sujdiniya@mail.ru](mailto:sujdiniya@mail.ru)*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Manipulyatsiya, formal mantiq, noformal mantiq, paralogizmlar, sofizmlar, relevant argumentlar, irrelevant

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ongning manipulyatsiyalash fenomenining argumentatsion mexanizmi formal va

argumentlar, mantiqiy hiylalar, psixologik hiylalar, universal auditoriya.

noformal mantiq paradigmalari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Bunda, eng avvalo, ongni manipulyatsiyalash fenomeni tuzulmasining zaruriy elementi sanaluvchi ishonirish va isbotlash jarayonlarining formal va noformal mantiq paradigmasidagi imkoniyatlarini tushuntirishga qaratilgan konsepsiyalar qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, argumentlarni tasniflash mezonlari argumentlash va manipulyatsiyani farqlashdagi muhim omil ekanligi ilmiy asoslanadi. Qolaversa, argumentlash jarayonida yo‘l qo‘yiladigan xatolarning intensional aspekti ularning manipulyativ mexanizm sifatidagi funksiyalarini belgilab berishi mumkinligi g‘oyasiga alohida diqqat qaratiladi.

## АРГУМЕНТАЦИОННЫЕ УЛОВКИ КАК КОГНИТИВНЫЙ МЕХАНИЗМ МАНИПУЛЯЦИИ СОЗНАНИЕМ

*Хуршид Илхомович Тошов*

*Доцент кафедры «Философия» Национального университета Узбекистана*

*доктор философских наук*

*e-mail: [sujdiniya@mail.ru](mailto:sujdiniya@mail.ru)*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Манипуляция, формальная логика, неформальная логика, паралогизмы, софизмы, релевантные аргументы, иррелевантные аргументы, логические уловки, психологические уловки, универсальная аудитория.

**Аннотация:** В данной статье феномен манипуляции сознанием анализируется с точки зрения аргументационного механизма в парадигмах формальной и неформальной логики. Прежде всего, проводится сравнительный анализ концепций, направленных на объяснение возможностей процессов убеждения и доказательства, которые рассматриваются как необходимые элементы структуры феномена манипуляции сознанием, в рамках формальной и неформальной логики. Также научно обосновывается, что критерии классификации аргументов являются важным фактором разграничения аргументации и манипуляции. Кроме того, особое внимание уделяется идее о том, что интенциональный аспект ошибок, допускаемых в процессе аргументации, может определять их функции как манипулятивных механизмов.

**Kirish.** Ongni manipulyatsiyalash fenomenini tadqiq etish sohasi haqida gap ketganda eng avvalo, psixologiya, siyosiy fanlar, sotsiologiya, tilshunoslik singari yo‘nalishlar yodga olinadi. Falsafiy bilimlar sohasi esa, ko‘pincha nazardan soqit qilinadi. Hattoki, manipulyatsiya fenomeni falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan izlanishlarda ham ko‘pincha, ijtimoiy-falsafiy, falsafiy-antropologik hamda, madaniy-falsafiy pozitsiyalar ustunlik qiladi. Vaholanki, ongni manipulyatsiyalash fenomeni tuzulmasida markaziy o‘rin tutuvchi ishonirish elementi ayni yo‘nalishdagi tadqiqodlarning muhim ob‘ektlaridan biri sanaladi.

Ongni manipulyatsiyalash fenomeni tuzulmasidagi emotsional ta‘sir ko‘rsatish elementini biryoqlama mutloqlashtirgan holda, uni ayni fenomenninng substansional asosi qilib ko‘rsatish oqibatida mazkur metodologik steriotip shakllangan. Soddarok qilib aytganda, keng jamoatchilik orasida manipulyatsiya deganda ko‘pincha, uni emotsional-psixologik ta‘sir ma‘nosida tushunish to‘g‘ri deb hisoblanadi. Bunday yondashuv esa tabiiy ravishda manipulyatsiyani psixologiya sohasidagi izlanishlarning tadqiqod predmeti sifatida qarashni ilgari suradigan yondashuvni tasdiqlashga xizmat qiladi. vaholanki, mantiq ilmining ajralmas, hattoki, muhim, amaliy yo‘nalishi sanaladigan argumentlash nazariyasi va amaliyoti sohasi manipulyatsiya tuzulmasidagi zaruriy element sanaladigan ishonirish mexanizmining nafaqat formal mantiqiy jihatlari, balki, emotsional-psixologik aspektlarini ham tadqiq etadi. Mantiq sohasidagi tadqiqotlar doirasini birgina formal mantiq imkoniyatlari bilangina chegaralab qo‘yish natijasida ana shunday biryoqlama yondashuv shakllangan. Shu ma‘noda ongni manipulyatsiyalash fenomenini mantiqiy tadqiqodlar nuqtai nazaridan tadqiq etishda nafaqat formal, balki noformal mantiq yo‘nalishlarining nazariy-metodologik imkoniyatlariga ham murojaat qilish zarurati yuzaga chiqadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Odatda mantiq, aniqrog‘i, aql va sog‘lom fikrga tayanish argumentlashning asosida yotadigan muhim tamoyil sifatida tushuniladi [1,19-b]. Argumentlash nazariyasi va ritorika tarixi tadqiqiga qaratilgan izlanishlarda Immanuel Kant birinchilardan bo‘lib mantiqiy asoslash jarayonida muayyan formal tuzulmalarning muhimligiga diqqat qaratganligi ta‘kidlanadi. Mutafakkirning ayni qarashi tufayli keyinchalik mantiqning predmeti mazmunni istisno qilgan holda isbotlash shakllarini nazarda tutuvchi formal, hamda mulohaza va isbotlashning mantiqiy shakllariga e‘tibor qaratmay, ularning mazmunini o‘rganuvchi noformal turlarini ajratib ko‘rsatish an‘anasi vujudga keldi [2, 356-b]. Ammo, formal argumentlash fenomeni Kantgacha bo‘lgan davrda ma‘lum ekanligi faktini ham nazardan soqit qilmaslik lozim. Jumladan, G. V. Leybnis quydagicha fikrni bildirgan: “men argumentlash deganda nafaqat maktablarda foydalaniladigan sxolastik argumentlash (sillogizmlar)”, balki, shakli tufayli xulosa chiqarish uchun asos bo‘la oladigan har qanday mushohadalash jarayonini tushunaman. Shu ma‘noda, takrordan xoli, sillogizm zanjiri namunasi sanaluvchi soritlar, yoki,

yaxshi tuzulgan hisob-kitob, algebraik masalalarni yechish usullari, cheksiz kichik kattaliklar tahlili men uchun shakli bois argumentlash jarayoni hisoblanadi. Negaki, ularning mushohadalash shakli oldindan isbotlanganligi tufayli, bunday isbotlash usullariga tayanilganda xato qilinmasligiga aniq ishonch hosil qilish mumkin. garchi yevklidcha isbotlashda qisqartirilgan sillogizmlar sanaluvchi entimemalardan foydalanilsada ularni ham ko‘p hollarda shakli tufayli argumentlashga misol qilib keltirish mumkin. Bu esa isbotlashning kuchini kamaytirmagan holda jarayonning birmuncha qisqarishiga olib keladi. U murojaat qiladigan isbotlarni bu ko‘rinishda ko‘paytirish va bo‘lish kabi amallarning barchasi matematika sohasi hamda, uning predmeti doirasida qo‘llaniladigan argumentlash shakllariga oid bo‘lib, matematiklar bunday argumentlash shakllarini umummantiqiy shakllar (formulalar) vositasida isbotlaydilar” [3, 493-b].

Ayni qarashlar hamda metodologik yondashuvlar bois yuqorida ko‘rsatilgan mezonlar asosida keyinchalik, argumentlash nazariyasi va amaliyotida dalillarni formal, ya‘ni, mantiqiy, qolaversa, noformal (misol uchun psixologik) ko‘rinishda tasniflash g‘oyasi yuzaga keldi.

Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, formal mantiq qonun va qoidalarining amal qilish sohasi ko‘p hollarda ilmiy kommunikatsiya doirasida cheklangan sanaladi. Shu ma‘noda, hatto buyuk olmon matematigi David Gelbertning (1862-1943), “formal mantiq matematikadan boshqa hech bir fanning asosida yotmaydi” [4, 464-b] - degan mulohazasida ham bir muncha haqiqat unsurlari bordek tuyuladi.

Ongni manipulyatsiyalash fenomeni qadim sivilizatsiyalar davrlaridan buyon mutafakkirlar va olimlar diqqatini tortib kelayotgan hodisa sanaladi. U kishilik jamiyatining dastlabki davrlaridanoq mifologik, falsafiy hamda siyosiy muhokamalar markazida bo‘lib kelgan jumladan, qadimgi Xitoy manbalarida boshqaruv san‘atining ajralmas elementi sifatida talqin etilgan. Qadimgi Hind manbalarida ham ayyorlik ko‘rinishida tanqidiy ko‘rib chiqilgan, qadimgi Yunon mifologiyasida Germes mabudi ayyorlik timsoli sanalgan. Keyinchalik esa, sofistlar maktabi, hamda notqlik san‘ati doirasida shakllangan muvoffaqqiyatli va ishonarli nutq qurish texnikasi borasidagi qarashlar ham manipulyativ ta’sir usullarining takomillashishi uchun muayyan nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

Argumentlash nazariyasi va amaliyotining formal mantiq paradigmasi doirasida cheklangan xarakter kasb etishi va shu bois u manipulyativ effektlarni tadqiq etishga imkon bermasligi borasidagi qarashlar Robert Zauliss, Stefen Tulmin, Irving Kopi, Charlz Xemblin, Govard Kaxeyn singari tadqiqotchilar izlanishlarida chuqur asoslanib, noformal mantiq paradigmasining zarurati ochib berilgan. S. I. Povarnin, Djon Robert Gula, Vyacheslav Nikolaevich Pankratov, Duglas Neyl Uolton, tadqiqodlarida esa bahsga kirishish fikrni asoslash, ishonchli dalillarni tanlash mezonlari, manipulyativ hiylalarning tasniflari tabiiy til va noformal mantiq nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Mutaxasislarning fikriga ko'ra, formal mantiq qo'llash sohasining cheklanganligi omili, argumentlash nazariyasi va amaliyotining rivojiga to'sqinlik qilish bilan birga uning taraqqiyoti uchun ham yo'l ochgan. Aniqrog'i, formal mantiq qonun va qoidalari tabiiy til va fikr mazmunini istisno etgan holda kundalik kommunikatsiya darajasida argumentlash texnikalarini qo'llash imkoniyatlarini cheklagan bo'lsa, boshqa tarafdin, ayni chigallikdan chiqishga metodologik nuqtai nazardan yo'l ochgan. Jumladan, daniyalik faylasuf Nils Nilsen bunday metodologik chigallikdan chiqish masalasini hal qilishga qaratilgan uchta konsepsiyani ko'rsatib o'tadi:

1. Argumentlarni maydoniy tashkillash konsepsiyasi. Unga ko'ra, argumentlarni tanlashda nafaqat ilmiy balki, kundalik, reklama singari nutqiy sohalarga qarab mo'ljal olish mumkin. Bu esa o'z navbatida dalillarni formal mantiq qoidalari asosida qat'iy ravishda baholab, tog'ri va noto'g'riga ajratish tendensiyasidan voz kechishni anglatadi.

2. Xususiy auditoriya [angl, particular audience], xususiy auditoriya konsepsiyasi. Unga ko'ra, argumentlash strategiyalari va taktikalari nutqning(situativ konteksti), aniqrog'i, muayyan auditoriyaning konkret tarkibiga qarab yo'naltirilgan bo'ladi. Mazkur omil formal mantiq qoidalari nuqtai nazaridan inkor qilinishiga qaramay, noformal mantiqiy konsepsiyalarda u umuman argumentlash jarayonini qurish, xususan, ayni jarayonda qo'llaniladigan dalillarni tanlashda boshlang'ich, hal qiluvchi hatto, zaruriy qadam sanaladi. Xeym Perelman o'z asarlarida ayni masalaga quyidagicha munosabat bildiradi:

Shunisi aniqki, bizning argumentlashga bag'ishlangan tadqiqodimiz ayrim jihatlariga ko'ra antik davr retorikasi chegaralari doirasidan muayyan darajada chiqib ketadi va ayni san'at ustalarini qiziqtirgan mazkur predmetning ba'zi aspektlari inkor qilinadi. Dastlab ularning predmeti ommaviy joylarda to'plangan olomonga murojaat qilgan holda uning taqdim etilgan tezisga nisbatan xayrixoh kayfiyatini saqlab turish maqsadida, og'zaki so'z va nutqdan foydalanishga qaratilgan ommaviy ishontiruvchi notiqlik san'atidan iborat bo'lgan. Agar notiqlikning adresatni ishontirish vazifasi argumentlash jarayoniga ham tegishli ekanligi nazarda tutilsa, unda bizning argumentlashga bag'ishlangan tadqiqotimizni og'izaki so'z darajasida soddalashtirish [5] hamda, auditoriya tushunchasini maydonda to'plangan olomon ko'rinishida jo'n tasavvur qilishdan ma'no ko'rmayapmiz [6, 6-b].

Ammo, shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, bunday mulohazalarni argumentlash nazariyalari evolyusiyasining qadimgi davrlarida ham uchratish mumkin. Jumladan, Arastu notiqlik va siyosatni dialektika hamda axloq o'rtasidagi sohalar sifatida tavsiflaydi. Negaki, uning fikricha,

notiqlik va siyosat o'z tuzulmasida yuqorida aytib o'tilgan ikki soha elementlarini mujassamlashtiradi. Zero, dialektikaning dalillari va isbotlash usullari barcha kishilar uchun umumiy bo'lsa, notiqlik san'atida foydalaniladigan dalillar va isbotlash vositalari ular mo'ljallangan auditoriyaning xarakteriga qarab tanlanadi. Ayni holatni turli xil tinglovchilarning didlariga qarab moslashadigan musiqachiga muqoyasalash mumkin.

Ilgari suriladigan tezisning mukammal darajada ishonarli chiqishi uchun nutq shu qadar moslashuvchan va variatsiyalarga boy bo'lishi zarurki, notiq bir xil mulohazani har bir tinglovchiga tushunarli so'zlarni qo'llagan holda ifoda etishi lozim. Aniqrog'i, har bir auditoriyaga bitta tezisning chinligi turli usullarda isbotlab berilishi lozim. Ammo, notiqlik san'ati tarixiga diqqat qaratilsa, mumtoz nazariyalar tarafdorlari nutqni taqdim etishda auditoriya xarakteri, har bir inson bilan muloqotga kirishish imkonini beruvchi moslashuvchan usullardan ko'ra, uni emotsional bezash va ratsional jihatdan kuchliroq asoslashga qaratilgan universalilarni izlab topishga intilganlar. Xususan, nutqning ishbilarmonlik, siyosiy sohalar, sotsio-madaniy, psixologik, mental, jihatlaridan kelib chiqqan holda moslashuvchanlikka diqqat qaratish mumkinligi nazardan soqit qilinadi. Biz muhokama qilayotgan mazkur masalani "shaxsiy nutq donishmandligi" deb atagan holda uning ustida ko'plab tadqiqodlar amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lardi.

3. Muloqot o'yinlari konsepsiyasi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, argumentlash nazariyalarining real voqelikni istisno qiluvchi formal-mantiqiy muloqot modeliga asoslangan mo'ljallarini tabiiy tilga, (natural language, language-in-use), aniqrog'i, ayni mavhum muloqot modelining inkori o'laroq jonli nutqqa murojaat qilishni nazarda tutadi.

Noformal mantiq sohasida izlanishlar olib borgan Robert Zauliss, Stefen Tulmin, Irving Kopy, Charlz Xemblin, Govard Kaxeyn singari tadqiqodchilar kundalik-maishiy muloqot, siyosiy bahslar, reklama sohalarida keng qo'llaniladigan nomantiqiy argumentlash (noformal argumentlash) usullariga jiddiy e'tibor qaratdilar [7]. Sanab o'tilgan tadqiqotchilarning izlanishlari (yangi argumentlash nazariyasi uchun poydevor bo'lib xizmat qildi) [8]. Ayni yo'nalishdagi tadqiqodlar XX asrning 70-yillarida keng miqyosda rivoj topdi. Xususan, 1978 yilda noformal mantiq sohasidagi tadqiqodlarning ommalashishiga imkon yaratuvchi «Informal Logic» jurnaliga asos solindi.

XVIII asrda yashab ijod qilgan ingliz ilohiyotshunosi va mantiqchisi Richard Ueytli mantiqqa tegishli bo'lgan chin mulohazalarni keltirib chiqaruvchi qoidalar, hamda ayni mulohazalarning chinligiga ishontirishni nazarda tutuvchi retorikaga oid qoidalar mavjudligini [9] ta'kidlagan. Ammo, Richard Ueytlining mazkur qarashini yanada takomillashtirgan holda shuni aytish mumkinki, gap ishontirish haqida ketganda qoidalar emas, usullar, qolaversa retorikadan ko'ra ular eristika va sofistika sohalariga tegishli hisoblanadi.

Kanadalik olimi Trudi Guvening fikriga ko'ra aniq belgilab qo'yilgan qoidalarning mavjudligi formal mantiqning o'ziga xos xususiyati sanaladi. agar mazkur ta'rifga ergashilsa," argumentlash nazariyasining tamoyillari formal xususiyat kasbetishiga ishonishimkonsizdir»[10, 111-b]." Shunisi aniqki, na eristika, na sofistika va na qora retorika muayyan qat'iy qoidalarga rioya qilishni nazarda tutmaydi. Shu ma'noda, formal mantiq qoidalarning amal qilmasligi ko'pincha manipulyativ effektlarni yuzaga keltiradi.

Argumentlash jarayonida qoidalarning ataylab buzilishi noto'g'ri argumentlash deb ataladi.

Argumentlash usullarini tadqiq etishga qaratilgan aksar tadqiqotlarda ular ko'pincha axloqiy-ma'naviy mezonga tayangan holda to'g'ri va noto'g'ri turlarga tasniflanadi. Ongni manipulyatsiyalash fenomeni tadqiq etilgan izlanishlarda ham ayni tendensiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. aniqrog'i, axloqiy nuqtai nazardan noto'g'ri sanaladigan usullardan foydalangan holda ishontirish ongni manipulyatsiyalashning muhim belgilaridan biri sifatida ko'rsatiladi. jumladan, taniqli rus psixologi Vyacheslav Nikolaevich Pankratov noto'g'ri argumentlash usullaridan foydalanish aktini "axloqiy nuqtai nazardan qo'llash mumkin bo'lmagan, kishining o'ziga bo'lgan hurmati, uyat singari nozik tuyg'ulari bilan o'ynashgan holda suhbatdoshni ruhiy muvozanatdan chiqarish singari ta'sir shakllariga asoslangan muhokama olib borish, munozaraga kirishish, bahslashish texnikasi sifatida ta'riflab»[11, 16-b],- ularni psixologik hiylalar qatoriga kiritadi. Ongni manipulyatsiyalash xususan uning muhim mexanizmlaridan sanaluvchi argumentlash jarayonida qo'llaniladigan hiylalarni bunday ma'noda talqin etish mavzuga oid tadqiqotlarda ustunlik kasb etishi tabiiy hol sanaladi. sohaga oid an'anaviy tadqiqotlarda ongni manipulyatsiyalash hamda uning zaruriy mexanizmi sanaluvchi argumentlash jarayonida tadbiiq qilinadigan hiylalar deganda kommunikativ vaziyatda ustunlikka erishish, o'z manfaatlarini maksimal darajada qondirish, bahsda g'alabaga erishish hamda qarshi tomonni zaiflashtirish maqsadida ishlatiladigan noto'g'ri va nomaqbul usullar tushuniladi. "O'z pozitsiyasini kuchaytirish hamda, opponent pozitsiyasini yo'qqa chiqarish maqsadida mantiq va argumentlash nazariyasi qonun-qoidalarini ataylab buzish» [12, 115-b],- sanaladi.

Noto'g'ri argumentlash usullari sifatida tavsiflanuvchi hiylalarga nisbatan bunday munosabat uzoq tarixga ega. Masalan, Qadimgi Afinaning oliy sud va siyosiy organida (areo-page) deb ataluvchi kishilarda qahr, afsus singari tuyg'ularni qo'zg'atuvchi hiylalardan foydalanish qonunan taqiqlangan [13, 88- b]. O'rta asrlarda esa, bunday usullardan foydalanish nechog'li maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi bahslar cheksiz miqdorda davom etdi.

To'g'ri argumentlash usullari tushunchasi tadbiiqi universal auditoriyaga mo'ljallangan bo'lib, aql va mantiqqa tayanadi. Universal auditoriya atamasi X. Perelman tomonidan ommaviy ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib,amal qilish doirasi axloqiy tamoyillarga mos keladigan, mavhum, aniqrog'i, erishish imkonsiz bo'lgan retorik idialni [14, 179-b], nazarda tutadi. Bunday

idial auditoriyaning real voqelikda mavjud bo'lishi imkonsizligi faktini nazarda tutgan holda ayrim tadqiqotchilar ayni tushunchani ortiqcha nazariy yuklama o'laroq baholaydilar [15, 138-139-b].

Ammo, ayni masalada rus mantiqshunosi va faylasufi ta'kidlaganidek, "noto'g'ri argumentlash usullarini izchil va mukammal tarzda tasniflash imkonsiz. Masalan, propaganda jarayonida qo'llanganda to'g'ri sanalgan argumentlash usullari ilmiy sohaga tadbiquan noto'g'ri va begona bo'lishi mumkin» [16, 365-b]. shifokorlar bemorlarning, advokatlar himoyalannuvchi tarafning, o'qituvchilar o'quvchilarning, ota-onalar farzandlarning foydasi uchun boshqalar nazdida noto'g'ri, noaxloqiy sanaladigan argumentlash usullaridan foydalanishlari mumkin. Ko'rinib turibdiki, muayyan vaziyatda zaruriy va yaxshi hisoblangan ishontirish usullari, boshqa o'rinda yomon hatto zararli sanalishi ham mumkin. shu ma'noda argumentlash usullarini jangovor usullarga o'xshatish mumkin. zero, ularning qay biri ko'proq axloqiy xususiyat kasb etishini aniq ko'rsatish deyarli imkonsiz. Qolaversa, sudda o'zaro tortishish vositalarining suiiste'mol qilinishi ularning foydasiz va zararli ekanligini anglatmagani singari muayyan argumentlash usulining g'arazli maqsadlarda qo'llanilishi ularning mutlaqo ishlatilmasligi zarurligini anglatmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ayni masaladagi axloqiy bahsda muayyan argumentlash usulining to'g'ri yoki, noto'g'ri ekanligi emas, aksincha, ulardan foydalanish maqsadlarining nechog'li axloqiy me'yorlarga muvofiqligi muhokama qilinishi lozim. Negaki, har qanday argumentlash usuli ham ijobiy, ham salbiy maqsadlarda birdek qo'llanilishi mumkin.

Qadimgi Yunon an'alarida ham to'g'ri va noto'g'ri argumentlash usullari va ularning axloqiy oqibatlarini keng muhokama qilingan bo'lib, undaham tadbiqu qilinadigan usul emas, balki, qo'llash maqsadi axloqiy muhokama predmeti bo'lishi lozimligi borasidagi mulohaza ilgari suriladi. Xususan, argumentlash usullarining qo'llanilish maqsadiga ko'ra ularni axloq me'yorlariga mos yoki mos emasligini baholash lozimligi borasidagi qarashlarni Sofistlar Maktabi vakillaridan biri bo'lgan Leontinlik Gorgiy ta'limotida ham uchratish mumkin. Paradoksal jihati shundaki, sofistlar maktabi vakillari jumladan, Gorgiy ham mulohazalarning chinligini isbotlash borasida gnosiologik releativizm pozitsiyasida bo'lib, unga ko'ra, bir paytning o'zida har qanday mulohazaning chinligini ham, xatoligini ham isbotlash mumkin. qolaversa, sofistlar maktabi vakillari tarixan mantiq va argumentlash nazariyasi qoidalarini buzish, boshqacha qilib aytganda, nomaqbul, noto'g'ri argumentlash usullarini faol qo'llash orqali ommani o'zlari ilgari surgan tezislarga ishontirish, hamda, buni pul evaziga boshqalarga o'rgatish bilan nom qozonganlar. Ammo, uning Suqrot bilan kechgan quyidagi muloqoti mazmunida yuqorida ta'kidlangan mulohazani uchratish mumkin.

Argumentlash usullarining axloqiy me'yorlarga muvofiqligi masalasini tadqiq etgan kanadalik mantiqshunos Duglas Neyl Uolton (University of Winnipeg) falsafa professori quyidagi mulohazani ilgari suradi: "Aftidan, eristik usullarni axloq nuqtai nazaridan tasniflash bo'yicha

murakkab savolni hal qilishda axloqiy relativizm tamoyiliga amal qilish tavsiya etiladi, aks holda biz aslida mavjud bo'lgan narsani kimdir mavjud bo'lishi kerak deb hisoblagan narsa bilan yoki hatto kimdir yaxshi yoki yomon deb hisoblagan narsa bilan adashtirib yuborish xavfi bilan yuzlashishimiz mumkin"[17].

Ko'rinib turibdiki, qadimgi an'analarda ham, zamonaviy tadqiqotlarda ham muayyan argumentlash usulining axloqan to'g'ri yoki, noto'g'ri ekanligidan ko'ra, ko'proq ulardan foydalanish nechog'li axloqiy tamoyillarga mosligi muhokama predmeti bo'lishi lozimligi to'g'risidagi fikr ilgari surilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, argumentlash usullarini tasniflashda axloqiy mezonga murojaat qilinganda intensional aspekt nazardan chetda qolmasligi zarur.

### **Xulosa va takliflar**

1. Ongni manipulyatsiyalash fenomeni xususan, uning tuzulmasi sohalararo tadqiqot predmeti o'laroq turli ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi izlanishlarda chuqur o'rganiladi. Uning tuzulmasida ishontirish elementi muhim va zaruriy unsur ekanligi nazarda tutilsa, ayni fenomenni falsafiy, jumladan, mantiq, argumentlash nazariyasi va amaliyoti kontekstida tahlil etish zarurati mavjud ekanligi fakti yuzaga chiqadi.

2. Mantiq, argumentlash nazariyasi va amaliyoti sohasini birgina formal mantiq doirasida tasavvur qilish ongni manipulyatsiyalash fenomenini ayni yo'nalishlar tadqiqot predmetidan tashqaridagi o'rganish ob'ekti degan stereotipning shakllanishiga olib kelgan. Noformal mantiq yo'nalishining alohida akademik soha o'laroq shakllanishi manipulyatsiya fenomenini mantiq hamda argumentlash nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan ham tadqiq etish imkonini yuzaga keltirdi.

3. Ishontirish elementi ongni manipulyatsiyalash fenomeni tuzilmasining zaruriy elementi ekanligi borasidagi tezisning chinligidan kelib chiqqan, holda, argumentlash usullari va qoidalari hamda ularga amal qilinmagan vaziyatda yuzaga keladigan xatolarni manipulyativ effektlar hosil qiluvchi mexanizmlar sifatida tavsiflash mumkin.

4. Ongni manipulyatsiyalashda tadbiq qilinadigan argumentatsion mexanizmlar sifatida argumentlashda yuzaga keladigan turli xatolar hamda ularni maqsadli suiiste'mol qilish natijasida ro'y beradigan hiylalarni ko'rsatish mumkin.

5. Ongni manipulyatsiyalash fenomenining argumentatsion mexanizmlarini shakliga ko'ra, mantiqiy hiylalar, psixologik hiylalar va til hiylalaridan iborat uch guruhga tasniflash mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Fahnestock J., Secor M. A rhetoric of argument. 3rd ed. New York, 2003. P. 19.

2. Ивин А. А., Никифоров А. Л. Словарь по логике. М., 1998. С. 356; Johnson R. H. Manifest rationality. A pragmatic theory of argument. New Jersey, 2000. P142 (гл. 5 «Informal logic: an alternative theory of argument»).
3. Лейбниц Г. В. Новые опыты о человеческом разумении. 1703-1704. Соч. в 4 т. Т. 2. М., 1983. С. 493.
4. Hilbert D. The foundations of mathematics // From Frege to Godel. Cambridge, 1927. P. 464.
5. Имеется в виду необходимость исследования особенностей аргументации в письменной форме речи, в частности в современной печати (modern printing press). - В. М.
6. Perelman Ch., Olbrechts-Tyteca L. The new rhetoric. A treatise on argumentation. Univ, of Notre Dame Press, 1969. P. 6.
7. Имеются в виду работы: Thouless R. H. Straight and crooked thinking. Cambridge, 1930; Copi I. Introduction to logic. New York, 1957; Kahane H. Logic and contemporary rhetoric. The use of reason in everyday life. Belmont, 1971 и др.
8. Johnson R. H. Manifest rationality. A pragmatic theory of argument. New Jersey, 2000. P. 111.
9. Whately R. Elements of rhetoric comprising an analysis of the laws of moral evidence and persuasion with rules for argumentative composition and elocution. Kessinger Publishing, 2005. P. 281.
10. Govier T. Problems in argument analysis and evaluation. Dordrecht & Berlin, 1987. P. 14-15.
11. Панкратов В. Н. Манипуляции в общении и их нейтрализация. М., 2001. С. 16.
12. Култышева И. В. Уловки в доказательстве как способ аргументации в предвыборных листовках // Политическая лингвистика. 2010. № 2. С. 115.
13. Renaissance debates on rhetoric / ed. W. A. Rebhorn. Cornell Univ. Press, 1999. P. 88.
14. Encyclopedia of rhetoric / ed. Th. O. Sloane. Oxford Univ. Press, 2001. P. 61 & 173; Кассен Б. Эффект софистики. СПб, 2000. С. 179.
15. Foss S., Foss K., Trapp R. Contemporary perspectives on rhetoric. 2nd ed. Waveland press, P. 138-139.
16. Ивин А. А. Теория аргументации. М., 2000. С. 365.
17. Walton D. Ethical argumentation. Lexington Books, 2003. P. 195. Автор называет свой (новый ли? подход «новой диалектикой (new dialectic)» — вероятно, по аналогии с «новой риторикой» и «новой софистикой», для которых он как раз характерен. См. также: Walton D. The new dialectic. Conversational contexts of argument. Univ, of Toronto Press, 1998.